

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILLARINI SAMARALI O'QITISH

Esonaliyeva Husnida Shavkatjon qizi

Ozbekiston jahon tillari universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun xorijiy tillarni qiziqarli va oson o'qitish usullari ko'rib chiqiladi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, innovatsion, Masaru Ibuka, qobiliyat, metod, vizual.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda bizning yurtimizda ham ta'lim sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rgatilishiga e'tibor katta. Bundan tashqari, prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham yoshlarning chet tillarni bilishi bugungi kunning eng muhim talabi ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Ayniqsa, ularning 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli farmonida, asosan, maktablarda xorijiy tillarni o'qitish chora-tadbirlarini ko'rish kerakligi aytilgan. Ma'lumki, chet tillarini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni ushbu tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab chet tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzda o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. Ma'lumki, chet tillarini o'qitilishi bolalarda fikrlash, tahlil qilish, va muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, yangi imkoniyatlar bilan tanishish imkonini beradi, ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshiradi, ayniqsa, kelajakda chet tilini bilish, ish bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi. Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Uchdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunisi qiziqki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, mexanik yodlaydi. Aynan shuning uchun ham kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tillari o'rgatilayotganda avval grammatik qoidalardan boshlamaslik kerak. Aksincha, turli rang-barang o'yinlar o'tilishi orqali bola psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin va o'rganilayotgan ma'lumotni uzoq muddat xotirada saqlab qolishga yordam beradi. Aks holda, boladagi o'rganishga bo'lgan qiziqish pasayishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisining xorijiy tilni o'rganishni birmuncha qiyin hisoblanadi. Shuning uchun ham bu yo'lda bir qancha innovatsion metodlar qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. O'yin va faoliyatlar. O'yinlar orqali tilni o'rganish bolalarga qiziq va samarali bo'ladi. Rol o'ynash, so'z o'yinlar va jamoaviy o'yinlar til o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.



2. Vizual materiallar. Rasmlar, plakatlar, videolar va muammolarni yechishga qaratilgan vizual materiallar bolalarning diqqatini jalb qiladi va yangi soʻzlarni oʻrganishni osonlashtiradi.

3. Audio materiallardan foydalanish. Musiqa, qoʻshiqlar va hikoyalar oʻquvchilarning eshitish koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Insoniy aloqalar va suhbatlar. Oʻquvchilarga tilni amaliy tarzda qoʻllash imkoniyatini beradi. Boshlanishdan oldin oddiy diologkar yoki savol-javoblar oʻtkazish mumkin.

5. Interaktiv texnologiyalar. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish oʻquvchilarning oʻz-oʻzini oʻrganishlarini va mustaqil ishlarini taʼmilnlaydi.

6. Integrativ yondashuv. Chet tilini boshqa fanlar bilan birga oʻqitish. Masalan, sanʼat darsi bilan chet tilini birlashtirib, mavzularni oʻrganish.

7. Individual yondashuv. Oʻquvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda taʼlik berish. Har bir bola oʻz surʼatida oʻrganish imkoniyatini olishi kerak.

8. Motivatsiya va ragʻbatlantirish. Oʻquvchilarni qiziqtirish va ularning muvaffaqiyatlarini ragʻbatlantirish uchun kichik sovgʻalar yoki unvonlar taqdim etish samarali boʻlishi mumkin.

9. Kundalik faoliyatlar. Oʻquvchilarga kundalik hayotda oʻzlarining sevimli faoliyatlarida chet tilida foydalanishini ragʻbatlantirish. Masalan, oziq-ovqat sotib olish, joylarni tavsiflash kabilar.

10. Tashqi muhitga chiqish. Oʻquvchilarni chet tilidan foydalanish uchun tashqi muhitga olib chiqish. Masalan, mahalliy chet tilini biluvchi insonlar bilan uchrashuv.

Chet tilini oʻqitishda bulardan tashqari yana bir qancha metodlar ham mavjud boʻlib, olimlarning taʼkidlashlaricha, ular yosh bolalarga bilim berishning foydali va samarali yoʻllari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, bolalarga bir necha qiziqarli va samarali usullardan foydalangan holda dars oʻtish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor boʻlib xizmat qilishi shubhasiz. Zero, bobolarimiz bejizga "Yoshlikda olingan bilim - toshga oʻyilgan naqsh" ,- deyishmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Boshlangʻich taʼlim jarayonida xorijiy tillarini oʻqitish metodikasi
2. Boshlangʻich sinflarda ingliz tilini oʻqitish metodikasi
3. Oʻ. Hoshimov, I. Yoqubov "Ingliz tili oʻqitish metodikasi".